INSON QADRI - YANGI O ‘ZBEKISTON SIYOSATINING ASOSI

S.I.Tursunqulov
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat siyosatida “inson qadri” tamoyilining ustuvor ahamiyati va uning “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” doirasida ro‘yobga chiqarilayotganligi tahlil qilinadi. Ta’kidlanishicha, “inson qadri uchun” printsipi davlat organlari faoliyatining bosh mezoni bo‘lib, strategiyaning barcha yo‘nalishlari (xalqparvar davlat barpo etish, inson kapitalini rivojlantirish, adolatli ijtimoiy siyosat) inson manfaatlari ustuvorligiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Inson qadri, taraqqiyot strategiyasi, xalqparvar davlat, davlat boshqaruvi islohotlari, siyosiy tamoyillar, fuqarolik jamiyati, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitali

Asosiy qomusimiz Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so’zsiz bajarish, shuningdek, **“**Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to’la ro’yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezoni bo’lib qoladi[1]. Taraqqiyot strategiyasi har bir ustuvor yo’nalishi nomlanishidan boshlab, mazmun-mohiyatigacha Inson qadrini ulug‘lashga yo’naltirilgan. Xususan, birinchi ustuvor yo’nalish oddiygina “xalqparvar davlat barpo etish”, deb emas, balki “inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish” ekanligiga urg‘u berilgan, Shuningdek, to’rtinchi ustuvor yo’nalish sifatida esa “adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini[2] yanada rivojlantirish” belgilanmoqda.

2017 yildan buyon amalga oshirilayotgan davlat dasturlarida, eng avvalo, davlat organlari va fuqarolar o’rtasidagi munosabatlar xarakteriga bo’lgan yondashuvning o’zgarganligi, ular ko’proq o’zaro muloqotga asoslanib borayotganligida namoyon bo’lmoqda. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomalarida o’tkir muammolarga e’tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo’llari ko’rsatib berilmoqda. Islohotlar negizini *“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”* degan demokratik qoida tashkil etmoqda va uni izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilab berilmoqda.

Ta’kidlash joizki, har bir inson hayotdan rozi bo’lib turmush kechirishiga erishish– mamlakatimizda davlat siyosatining bosh maqsadiga aylandi. Demokratik taraqqiyot yo’lidagi yuksak marralarga erishish ko’p jihatdan xalqimizning bunyodkorlik salohiyatiga tayanishni nazarda tutadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida huquqiy asoslar takomillashtirildi. Jumladan, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to’g‘risida” gi (Yangi tahrirda – 2017-yil 11-sentyabr)[3], “Jamoatchilik nazorati to’g‘risida”gi (2018-yil 12-aprel)[4], “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to’g‘risida”gi (2018-yil 15-oktyabr)[5] qonunlar hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik

[1] Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б.8.

[2] F.Otaxonov. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi inson qadrini ulug‘lashga xizmat qiladi // https://uza.uz/oz/posts/2022-2026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasi-inson-qadrini-uluglashga-xizmatqiladi_335187

[3] “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни (янги тахрири). 2017 йил 11 сентябрь // https://lex.uz/docs/3336169

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида” ги Қонуни. 2018 йил 12 апрель // https://lex.uz/docs/3679092

[5] Ўзбекистон Республикасининг “Фукаролар йиғини раиси (оқсоқоли) сайлови тўғрисида” ги Қонуни. 2018 йил 15 октябрь // https://lex.uz/docs/3988421

jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi[1], “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini tashkil etish to’g‘risida”gi[2] farmonlari qabul qilindi. Buning natijasida davlat tuzilmalari faoliyatining metodologiyasi va ish uslubi tubdan o’zgarmoqda. Fuqarolar davlatga o’z muammolarining yechimini topishda eng ishonchli institut, deb qaray boshladi. Aholining turli tabaqa vakillarida davlatga bo’lgan ishonch tobora o’sib bormoqda. Boshqaruv tizimida insoniy yondashuv ustuvor talabga aylanmoqda. Xalq bilan muloqot tizimli ish boshladi, uyma-uy, xonadonma-xonadon yurib odamlarning muammolarini yechish, hamkorlik va real ko’mak taklif etish amaliyoti yo’lga qo’yildi[3].

Shu borada bir fikrni hammamiz chuqur tushunib olishimizni istardik. Bugungi kunda mamlakatimizdagi demokratik islohotlar samarasi avvalo, yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog‘liq[4]”. Darhaqiqat, so’nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar shuni ko’rsatdiki, davlat xizmati faoliyati samaradorligini yanada oshirishda malakali, shijoatli yosh kadrlarni saralab olish, tayyorlash va ularni munosib lavozimlarga joylashtirish ishiga tizimli yondashuv talab etilmoqda. Xususan, uzoq yillar davlat fuqarolik xizmati masalalari bo’yicha vakolatli organning mavjud emasligi bu borada yagona kadrlar siyosatini olib borilishiga to’sqinlik qilardi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O’zbekistonda ham davlat fuqarolik xizmatini yanada takomillashtirishni va isloh qilish bo’yicha asosiy tamoyili sifatida *meritokratiya tamoyilini* qo’llash[5] ustuvor yo’nalishga aylanmoqda. Bu esa kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini odilona va ob’ektiv baholash asosida eng munosib va qobiliyatli shaxslarni davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish hamda ularning xizmat pog‘onalari bo’yicha ko’tarilishini nazarda[6] tutadi.

Demokratik jamiyat meritokratik boshqaruv shaklini taqozo etishi, tabiiy. Bu, albatta, boylik mavqeini belgilaydigan plutokratiyadan yoki odamni yoshi hokimiyat cho’qqilariga ko’taradigan gerontokratiyadan yoki meros unvonlari va mulki birinchi darajali ahamiyatga ega bo’lgan aristokratiyadan afzalroqdir[7].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g‘risida[8]”gi PF-5843-son Farmoni hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini

---

[1] “Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг ролини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2018 йил 4 май // https://lex.uz/docs/3721649

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5980. / https://lex.uz/docs/4789926

[3] М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 2017. – ББ. 20-21.

[4] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Конституцияси қабул қилинганининг йигирма беш йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // https://president.uz/uz/lists/view/1328

[5] *Meritokratiya (so‘zma-so‘z “munosiblar hokimiyati”, lotincha meritus “munosib” + yunoncha kratos “hokimiyat, hukmronlik”) boshqaruv tamoyili bo‘lib, unga ko‘ra, ijtimoiy kelib chiqishi va moliyaviy holatidan qat'i nazar, eng qobiliyatli kishilar rahbarlik lavozimlarini egallashi kerak. Keng tarqalgan tushuncha bo‘lib, ob'ektiv iqtidorli va mehnatsevar odamlar uchun kelajakda erkin raqobat sharoitida yuqori ijtimoiy mavqeni egallash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun boshlang‘ich sharoitlarni yaratishni o‘z ichiga oladi. – Muallif izohi.*

[6] Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5843. //https://lex.uz/docs/4549998

[7] Дарендорф Р. Подъем и падение меритократии. Apr 13, 2005. https://www.projectsyndicate.org/commentary/the-rise-and-fall-of-meritocracy/russian

[8] Ўзбекистон Республикасида кадрлар сиёсати ва давлат фуқаролик хизмати тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, №ПФ-5843. //https://lex.uz/docs/4549998

rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g‘risida”gi PQ–4472-son qarori[1] hamda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to’g‘risida”gi O’RQ-788-son Qonunining qabul qilinishi[2] davlat fuqarolik xizmatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab berdi. O’zbekiston Respublikasida kadrlar siyosatini va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish[3]ga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturida Davlat fuqarolik xizmati to’g‘risidagi qonunchilikni xorijiy ekspertlarning tavsiyalari va keng jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtirish orqali O’zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatining asosiy tushunchalari, reglamentlari va kafolatlarini qonun bilan mustahkamlash vazifasi qo’yildi.

So’nggi yillarda mamlakatimizda demokratik taraqqiyot yo’lida sur’at va sifatda ulkan qadamlar tashlanmoqda, demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan, qat’iy tus olganini dunyo hamjamiyati ham e’tirof etmoqda. Ilg‘or davlatlar tajribalari shuni ko’rsatmoqdaki, yuqori taraqqiyot sur’atlarini bu jarayonga jalb etmasdan amalga oshirish qiyin kechadi. Bu borada “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori” degan g‘oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Davlatimiz rahbari murojaatnomasida ilgari surilgan “*Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”* g‘oyasi fuqarolik jamiyati institutlarini mamlakatimizda izchil demokratik taraqqiyotni amalga oshirishda asosiy yordamchiga aylantiradi.